

O'zbekistonda soliq tizimidagi islohotlari

Gulnoza Jamolova
NamMQI

Annotatsiya: O'zbekistonda soliq islohotlari amalga oshirilishi va natijalari tarixiy jarayoni tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: byudjet, soliqlar, soliq konsepsiyasi, soliq tizimi, soliq yuki, tadbirkorlik subyetlari

Tax system reforms in Uzbekistan

Gulnoza Jamolova
Namangan Institute of Engineering and Construction

Abstract: The historical process of implementation and results of tax reforms in Uzbekistan is analyzed.

Keywords: budget, taxes, tax concept, tax system, tax burden, business entities

Jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar, yig'imlar, bojlar va boshqa majburiy to'lovlar va ularning tuzilishi tamoyillari, usullari, soliq nazoratining yig'indisi soliq tizimi asosini tashkil qiladi. Bu ta'rif soliq tizimini keng manoda tushunishdir. Soliq qonunchiligida soliq tizimi tor manoda talqin qilinib, bir xil mohiyatga ega bo'lgan va markazlashgan pul fondi tashkil etadigan soliq, yig'im, boj va boshqa majburiy to'lovlarning yig'indisi soliq tizimi deb ataladi. Takidlash joizki, soliq tizimiga nisbatan bunday ta'rif ayrim adabiyotlarda ham keltirilgan. Qayd etilgan ta'rifda soliq va yig'imlar yagona mohiyat, ya'ni "majburiy harakterga ega bo'lgan munosabat" va ularning bir-biri bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bu esa O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi mazmuniga mos keladi.

Soliq islohotlari - soliq nazariyasi va amaliyotini muvofiqlashtirish asosida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortishni soddalashtirish, soliq yordamida iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadlarida amalga oshiriladigan davlat tadbirlari. Iqtisodiyotni isloh qilishining asosiy, ajralmas qismidir. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan Soliq tizimidagi islohotlar strategiyasi huquqiy va demokratik davlatni barpo etish konsepsiyasi asosida shakllanmoqda. 1991 yildan boshlab 2017 yilgacha O'zbekistonda o'tkazilgan soliq islohotlarini 3 asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

Birinchi bosqich: 1991-1994-yillarda soliqqa oid qonun hujjatlarini yaratish; tamomila yangi soliqlar va to'lovlar tizimini barpo etish va ularni xo'jalik amaliyotiga joriy etish; moliyaviy mablag'lar infratuzilmasini rivojlantirish, o'z-o'zini strategik resurslar bilan ta'minlashga erishish maqsadlarida qayta taqsimlash; narxlarning o'sishi va pasayishi sharoitida aholining turmush darajasi pasayib ketmasligi va ijtimoiy barqarorlikni saqlash; mustaqil tizim sifatida davlat soliq xizmatini shakllantirish vazifalari bajarildi.

Ikkinchi bosqich: 1995-1999-yillarda soliq tizimini takomillashtirish va korxonalariga nisbatan soliq yukini kamaytirish bo'yicha Soliq islohotlari amalga oshirildi. Bu davrda soliqqa doir mavjud qonun hujjatlari asosida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi ishlab chiqildi va 1997 yilda qabul qilindi. Uchinchi bosqich: 2000-yildan 2017-eilgacha soliq islohotlari qonunchilikka kiritilayotgan o'zgarishlar asosida fuqarolar va korxonalar uchun soliq, yukini yana-da kamaytirish, ayrim soliq turlarini bekor qilish, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish, samarali soliq tizimi tamoyillarini yana-da to'liq ro'yobga chiqarish, jahon andozalariga mos soliq tizimini bosqichma bosqich barpo etishga yo'naltirilgan edi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda Soliq islohotlari doimiy va davriy o'tkazib turiladi. Aynan bir soliq turini joriy etish yoki bekor qilish, ayrim shakildagi soliqlar ulushini oshirish yoki kamaytirish, soliq daromadlarini qayta taqsimlash va boshqa ko'rinishlarda amalga oshiriladi.

Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko'tarishimiz, buning uchun yangi islohotlarni amalga oshirish hozirgi davrda hayotiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayonda iqtisodiy zanjirning muhim halqalaridan biri bo'lgan soliq tizimi barchaga teng va erkin raqobat sharoitini yaratishda tayyor bo'lishi kerak. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2018 yilda yangi soliq konsepsiyasining qabul qilinishi ana shu maqsadlarga erishishning strategiyasini belgilab berdi. Tizimda yangi islohotlarni boshlab bergan ushbu konsepsiyadan oldingi holatga nazar tashlasak, 97 foiz soliq to'lovchilar soddalashtirilgan rejimda faoliyat yuritib, mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotida ularning ulushi qariyb 60 foizga yetgani, byudjet tushumlaridagi hissasi bor-yo'g'i 9,2 foizga teng bo'lgan yaqqol namoyon. Umumbelgilangan soliq to'lovchilar zimmasiga tushgan asosiy soliq yuki atiga 3 foizni tashkil etgan.

Yaqingacha nafaqa, maktab ta'limi va yo'l jamg'armalariga soliq to'lash, sug'urta badali, mol-mulk, QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) stavkalarining yuqoriligi mamlakat taraqqiyotini yaratuvchilar bo'lmish tadbirkorlar zimmasidagi katta yuk edi. Shuning uchun ularning o'zlari istamagan holda, soliqdan qochish shaklini tanlashga yoki soddalashtirilgan tizimda qolish uchun korxonalar ishchilari soni, ularga

to'laydigan ish haqini sun'iy yashirishga hamda "konvert" orqali to'lashga majbur bo'lar edilar.

2017-yildan boshlab soliq tizimiga o'zgacha yondoshilmoqda. tadbirkorlikda mutloq boshqacha muhit. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan adolatli, shaffof va uzoqqa mo'ljallangan tizimni yaratishga qaratilgan islohotlarning amalga oshirilishi natijasida butunlay yangi soliq ma'murchiligi tashkil topdi. Birinchi navbatda, soliqlar turi 16 tadan 9 taga, nazorat shakllari 13 tadan 2 taga kamaytirildi. Prezidentimiz joriy yil 20 avgust kuni tadbirkorlar bilan o'tkazgan tarixiy muloqotida soliq sohasidagi ko'pchilikning esidan ko'tarilgan holatlarni yodga solgani bejiz emas. Chunki, yaqingacha tadbirkorlarga og'ir yuk bo'lib kelgan nafaqa, maktab va yo'l jamg'armalariga 3,2 foizli yig'implar bekor qilindi. Byudjetdan tashqari jamg'armalarga mazkur yig'implarni bekor qilish hisobiga har yili qariyb 6 trillion so'm mablag' qoladigan bo'ldi.

Qisqa vaqtda sohani raqamlashtirish, jumladan, ma'lumotlarni qayta ishlash markazini bosqichma-bosqich takomillashtirish, aniqroq aytganda modernizatsiya qilish o'z navbatida, soliq to'lovchilarga ro'yxatdan o'tish, soliq tizimini tanlash, byudjet bilan munosabatlarini masofadan kuzatish, hisobotlarni shakllantirish va topshirish, shaxs o'z shaxsiy kabineti orqali dunyoning istalgan burchagidan soliq majburiyatlarini elektron tarzda bajarish imkoniyatini berdi. Umumiy hisobda soliq organlarining elektron davlat xizmatlari portali - my.soliq.uz da 50 ga yaqin shu kabi masofaviy xizmatlar yo'lga qo'yildi. Bularsiz bugungi soliq ma'muriyatchiligini va umuman, bugungi tizim faoliyatini tasavvur etib bo'lmaydi.

Davr shiddat bilan o'zgarib boryapti. Yuqorida amalga oshirilgan keng ko'lamli ishlarga qaramay, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish soliq ma'murchiligini soddalashtirishni, soliq idoralarining nazorat funksiyalarini takomillashtirish bo'yicha jiddiy choralar ko'rilmogda. Bir so'z bilan aytganda, soliq ma'muriyatchiligida yangi tizim yaratildi. Navbatdagi vazifa uni amaliyotga to'liq tatbiq qilishdir.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi soliq islohotlari zaminida soliq tushumlari oshirilishininig bosh yo'li soliq bazasining iqtisodiy o'sish asosida mustahkamlanishi ekanligi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – WWW.LEX.UZ
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. – Xalq so'zi, 2017-yil 8-fevral
3. Bekmurodov A. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyotini liberallashtirish yo'llarida: O'quv qo'llanma.1,2,3.4.5-qismlar. Akademik S.S. G'ulomov tahriri asosida. -T.: TDIU, 2006.

4. Tuxliyev B, Azizov O. Soliq yukini kamaytirish – iqtisodiyotni yuksaltirish omili. -T.: TDIU, 2007. -34b.
5. Bekzod, N. (2021). Systems of spiritual-ideological propaganda and their peculiarities. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(12), 263-272.
6. Bekzod, N. (2021). Ideological factors of eliminating threats to national spirituality. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 707-711.
7. Набиев, Б. М. (2022). Жамиятда ижтимоий-сиёсий барқарорликни мустаҳкамлашда маънавиятни ўрни. *Science and Education*, 3(10), 570-573.
8. Набиева, С. М., & Набиев, Б. М. (2022). Становление и развитие политико-правовой идеологии. *Science and Education*, 3(5), 1404-1407.
9. Nabiev, B. M. (2021). THE MAIN PRINCIPLES OF SOCIO-POLITICAL STABILITY.
10. Nabiyev, B. M. ILMİY AXBOROTNOMA FALSAFA 2021-yil, 4-son UDK 130.122 IDEOLOGICAL FACTORS OF STRENGTHENING SOCIO-POLITICAL STABILITY IN UZBEKISTAN. ILMİY AXBOROTNOMA, 70.
11. Абдуллаева, Г. (2022). К вопросу о внедрение кредитно-модульной технологии обучения в условиях образования. *Science and Education*, 3(4), 1348-1351.